

5-SINF ONA TILI DARSЛИGINING TUZILISHI VA MAZMUNI

Berdimuratova Madina Xayrullayevna
Jizzax Davlat pedagogika institute
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
II bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari hamda amaldagi 5-sinf darsligining tuzilishi va mazmuniga doir mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *darslik, 5-sinf, topshiriq, mashq, matn.*

Ma’lumki, ta’lim sifatini oshirishda ta’lim beruvchining ilmiy salohiyati, pedagogik mahorati, ta’lim oluvchining munosabati bilan bir qatorda ta’lim vositalari ham muhim ahamiyatga ega. Ta’lim vositalari orasida eng ko‘p foudalaniladigani, shubhasiz, darsliklardir. Amaldagi 5-sinf ona tili darsligi N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopovalar hammuallifligida yaratilgan bo‘lib, ”Kirish” va ”Takrorlash” dan keyin ”Fonetika. Grafika”, ”Talaffuz va imlo me’yorlari”, ”Leksikologiya”, va ”O‘quv yili oxirida takrorlash” nomli boblarga ajratilgan 136 ta darsdan iborat. Darslik ko‘rinishi, dizayni jihatdan 5-sinf o‘quvchilari uchun mos. Shuningdek, darslikni o‘rganish davomida Komiljon va Donoxon ismli ramziy bolakaylarning hamroh qilib qo‘yilishi ham yaxshi g‘oya. Shuningdek, mashqlar orasida o‘quvchilarga notanish bo‘lgan so‘zlar lug‘at shaklida berilib, izohlangan. Masalan,

Topshiriq. Matnni diqqat bilan tinglang.

Tabiat va biz

Bugungi kunda tabiat insonning yordami va g‘amxo‘rligiga muhtoj ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Buning boisi – tabiatga g‘ayriinsoniy munosabat. Uzoq yillar davomida ishlab chiqarish munosabatlarining noto‘g‘ri tashkil etilgani tufayli ko‘plab ekologik muammolar vujudga keldi.

Ekologik muammolar tabiat qonuniyatlariga ko‘r-ko‘rona aralashish oqibatida kelib chiqadi. Masalan, yirik zavod, fabrikalardan turli zararli gazlarning chiqishi natijasida atmosferadagi ozon qatlami yirtiladi, hosil bo‘lgan tuynuk hozirgi paytda butun insoniyatni tashvishga solmoqda. Buning natijasida quyoshdan keladigan turli zararli nurlar yemirilgan ozon qatlaming tuynugi orqali tozalanmay, to‘g‘ridan to‘g‘ri yerga tushmoqda.

Bilasizki, ona yurtimiz – dunyoda tengsiz go‘zal makonlardan biri. Purviqor tog‘lari, daryo va ko‘llari, musaffo osmoni, yam-yashil dalalari, bir so‘z bilan

aytganda, butun tabiatni har qanday insonni maftun etadi. Uni asrab-avaylash, kelajak avlodga bus-butun yetkazish siz va bizning qo‘limizda.
(“Tabiatni asrash – o‘z qo‘limizda” risolasidan)

Matndan so‘ng quyidagi lug‘at beriladi hamda lug‘at bilan tanishish, izohlariga e’tibor berish va matndan shu so‘zlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirish vazifasi beriladi:

Lug‘at: atmosfera – Yerni va boshqa planetalarni o‘rab turgan gazsimon qobiq; **ozon** – kislороднинг бир ко‘риниши, о‘зига хос хиди бо‘лган газ; **ozon qatlами** – atmosferадаги кислородли qobiq; **ekologiya** – одам ва табият муносабатини о‘рганувчи фан; **purviqor** – go‘zallik va viqorga boy.[1:37]

Bizningcha, matnni diqqat bilan tinglagan va so‘zlar izohi bilan tanishgan o‘quvchidan shu so‘zlar ishtirokida boshqa gaplar tuzish vazifasi berilsa ham yaxshi samara beradi. Shunda o‘quvchi yangi o‘zlashtirgan so‘zlarini o‘z nutqida to‘g‘ri qo‘llash malakasiga ega bo‘lib boradi. Quvonarlisi, yangi darslikda matn va lug‘at ustida ishslashga alohida darslar ajratilgan.

Biz tadqiqotimiz davomida 5-sinf ona tili darsligidagi mashq va topshiriqlarning o‘quvchilardagi og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishga qanchalik xizmat qilishini o‘rganib chiqishga harakat qildik. Mashqlarning ko‘pgina qismini o‘quvchilarning ijodkorligini o‘stirish uchun xizmat qiluvchi o‘tilgan mavzuga mos bayon, hikoya, kichik matn kabilarni tuzish topshiriqlari berilgan, lekin bunday topshiriqlarga grammatik vazifa ham yuklatilgan bo‘ladi. Masalan, 5-sinf ona tili darsligidagi “So‘roq olmoshlari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar” mavzusining 94-mashqida buni ko‘rishimiz mumkin: “Qarisi bor uyning parisi bor” mavzusida matn tuzing. Unda so‘roq olmoshlari ishtirok etgan so‘roq gaplardan foydalaning”.[1:30]

O‘quvchilarning ko‘pchiligi uyda kimningdir yordamida matn tuzishadi, undagi so‘zlarning grammatik vazifasiga e’tibor bera olmaydi, yoki bunday qo‘shimcha topshiriq ularni chalg‘itadi. Shunday ekan, matn tuzish uchun berilgan topshiriqlarda o‘quvchilarning diqqatini bir tomoniga yo‘naltirgan mavzularga qaratish lozim, ya’ni ular uchun qiziq bo‘lgan sarlavha asosida matn yaratish topshirig‘i berilishi va unda asosan, mazmunga e’tibor qaratishlari kerakligi aytilishi lozim. Nutqni o‘stirishda ularning lisoniy malakasini va qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘quv topshiriqlarini berib boriladi.

Darslikda berilgan ”Internet to‘g‘risida ma’lumot”[1:28], birinchi robot haqidagi faktlar, ”O‘zbekni mashhur qilgan alla pinin” kabi ko‘plab matnlar o‘quvchilarni qiziqtirish bilan birga so‘z boyligi oshishiga ham sezilarli ta’sir qiladi.

5-sinf o‘quvchilarida matn yaratish malakalari ham ancha shakllangan bo‘ladi. Agar bolalar birinchi sinfning oxirida 10 – 12 so‘z, 2- sinfda 12 – 20 so‘z, 3-sinfda 20 – 30 so‘z, 4-sinfda 30 – 40 so‘zdan iborat matn hosil qilishga erishgan bo‘lsalar,

bu yoshda ular 40 - 45 so‘zdan iborat matn yaratish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar. Shu imkoniyatlar asosida ular dan olinishi mo‘ljallanayotgan yozma matnlardagi so‘zlar miqdoriga ham e’tibor berilishi zarur.

5-sinf o‘quvchilarini matn yaratishga tayyorlashda o‘quvchi tafakkuri, idrok va xotirasi, nutqiy salohiyatini o‘stirishga qaratilgan quyidagi psixolingvistik topshiriqlardan ham foydalanish mumkin:

1. Matndan takror ishlatilgan so‘z va so‘z birikmalarini topib, to‘g‘rilang va ularning o‘rniga mos boshqa so‘zlarni qo‘ying. 2. Mazmunga mos keladigan maqol, hikmatli so‘z, iboralarni topib, matn tarkibiga kriting. 3. Berilgan matn bilan qayta ishlangan matnni qiyoslang, ular o‘rtasidagi farqni toping. 4. Matndagi chetdan o‘zlashtirilgan so‘zlarni o‘zbek tilidagi muqobili bilan almashtiring. 5. Matnga siz kiritgan tuzatish shu matn uchun qanchalik zarur bo‘lganini isbotlang.

Darsliklarda berilgan maqollar, she’rlar va nasriy asarlardan keltirilgan parchalarni muntazam o‘qib borish, ular dan zarur joylarini ko‘chirib olish, parchalar yodlash, matn yuzasidan turli yozma ishlar olib borish yozma nutqni o‘stirishga yordam beradi.

Umuman olganda, yangilangan darslikka zamon talablaridan kelib chiqib, anchagina ijobiy o‘zgarishlar kiritolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. va boshqalar. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi-Toshkent: 2020.
2. Muhitdinova H. Ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta’minalashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. P.f.d. diss. – Toshkent, 2011.
3. Sattorova N. O‘quvchilarning insho yozish malakalarini shakllantirish. P.f.n. diss. – Toshkent: 1995.